

Ichki audit boshqarmasining 2024-yildagi faoliyati bo'yicha HISOBOT

1. Umumiy ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlari 282 tani tashkil etadi.

Vazirlik markaziy apparati taribi bo'linmasida Ichki audit boshqarmasining shtat birliklari soni 15 tani tashkil etadi. Hozirgi kunda boshqarmada 13 nafar rahbar-xodimlar ish faoliyatini olib borayotgan bo'lib, barchasi milliy malaka sertifikatlariga ega.

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati

Hisobot davrida 296 ta obektda 41 ta o'rganish ishlari va moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Boshqarmasining yillik ish rejasiga 83 ta o'rganish obekti kiritilgan bo'lib, shundan 79 tasida (95%) 6 ta moliyaviy nazorat tadbirlari hamda ish rejadan tashqari 217 ta o'rganish obektda 35 ta moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazilishiga erishildi.

Ushbu o'rganishlar va moliyaviy nazorat tadbirlarida 257 525,8 mln. so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi.

Yuqoridagi moliyaviy nazorat va o'rganish ishlari jarayonida 111,9 mln. so'mlik pul mablag'lari tegishli budjetlarga qaytarilishi ta'minlandi.

Shunigdek, 35 ta moliyaviy nazorat tadbirlarida 217 ta o'rganish obektda 1362 ta holatda 210 281,1 mln. so'mlik profilaktik tadbirlar o'tkazilishiga erishildi.

Masofaviy audit orqali aniqlangan shubrali operatsiyalar bo'yicha 172 ta obektda kameral nazorat ishlari amalga oshirildi.

Kameral nazorat tadbirlarida jami 98 185,8 mln. so'mlik pul mablag'lari amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlarga zid ravishda sarflanishining oldi olindi.

3. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar

Yuqorida ko'rsatilganidek, hisobot davrida 83 ta obektda o'rganish ishlari o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 79 tasida moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Rejadagi 4 ta obektda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan moliyaviy nazorat tadbirlari o'tkazilganligi sababli Ichki audit boshqarmasi tomonidan o'rganish ishlari o'tkazish imkoniyati bo'lmadi.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar

Hisobot davrida 296 ta obektda, shundan, yillik reja asosidagi 79 ta va yillik rejadan tashqari 217 ta obektda jami 296 ta taklif va tavsiyalar berilgan.

Bular asosan:

- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"digi Qonuni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-144-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi "Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 743-sonli qarori;

- Adliya vazirligi tomonida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma;

- Adliya vazirligi tomonida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomlariga rioya etishlari bo'yicha taklif, tavsiya va qat'iy topshiriqlar berildi.

5. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Hisobot davrida ichki audit faoliyatini yaxshilash maqsadida, Ichki audit xodimlarining moddiy ta'minoti bo'yicha mehnatga haq to'lash tizimi qayta ko'rib chiqildi va natijada Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 200 foizgacha ustamalar belgilash bo'yicha vazirlikning tegishli buyrug'i ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Ichki audit boshqarmasi faoliyatini samarali olib borilishini ta'minlash maqsadida 4 ta shtat birligini to'ldirish maqsadida vacancy.argos.uz platformasiga e'lonlar joylashtirildi.

Ushbu e'lonlar natijasida, o'rnatilgan tartiblarga ko'ra saralash va suhbat jarayonlari o'tkazildi hamda 2 nafar ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega

bo'lgan xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzildi va ushbu ishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoqda.

Ichki audit boshqarmasining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida, boshqarma Nizomi qayta ishlab chiqildi va vazirlikning 2024-yil 14-iyundagi 118-sonli buyrug'i bilan Ichki audit boshqarmasining Nizomi tasdiqlandi.

Ushbu Nizomga muvofiq Ichki audit boshqarmasi xodimlarining lavozim yo'riqnomalari qayta ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqandi.

Shuningdek, Ichki audit boshqarmasi xodimlarini amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlardan, yangiliklardan havardor bo'lishlari, ushbu yangiliklarni amaliyotda qo'llashlari, provard natijada budjet va budjetdan tashqari mablag'lari maqsadli va samarali ishlatilish bo'yicha malakalarini mustahkamlash maqsadida bir qator o'quv-seminarlarda qatnashishlari ta'minlandi.

Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2024-yil 1-may kuni "Davlat audit" dasturiy kompleksidagi o'zgarishlarni foydalanuvchilarga yetkazish va dasturdan foydalanishini o'rganishga bag'ishlangan seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2024-yil 20-sentabr kuni o'tkazilgan "Masofaviy audit" AATdan foydalanish savodxonligini oshirish bo'yicha seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2024-yil 15-noyabr kuni o'tkazilgan "Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi va idoralarning Ichki audit xizmatlari faoliyati" mavzusidagi seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2024-yil 30-may kuni o'tkazilgan "Ichki audit faoliyatini tashkil etishning Avstriya tajribasi" mavzusidagi onlayn seminar;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2024-yil 23-oktabr kuni o'tkazilgan "Ichki audit faoliyatini tashkil etishning Niderlandiya tajribasi" mavzusidagi onlayn seminar.

6. Vazirlik tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar

Tegishli ma'lumotlar sohada mavjud emas.

7. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar (taklif va tavsiyalar)

Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalarda uchraydigan kamchiliklar va xavflarni oldindan aniqlash, ularni tahlil qilish, oldini olish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni itjrosini ta’minlash maqsadida, Suv xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi “Suv xo‘jaligi vazirligida xavflarni boshqarish tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 276-sonli buyrug‘i tasdiqlandi.

Ichki audit boshqarmasi